



Zamira SHUKUROVA,
Qarshi davlat universiteti Lingvistika kafedrasida katta o'qituvchisi

Qarshi DU f.f.f.d v/b dotsent M.Omonova taqrizi asosida

ONOMASTIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK TURG'UN BIRLIKLAR VA ULARNING HOZIRGI ZAMON INGLIZ TILIDA QO'LLANILISHI

Аннотация

Maqola hozirgi ingliz tilida ko'p uchraydigan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarning qo'llanilishini o'rganishga bag'ishlangan. Onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarning asosiy qismi ma'no jihatidan insonga qaratilgan bo'lib, ular kishining biror jismoniy, ruhiy, ahloqiy, intellektual xususiyatini, hatti-harakatini baholaydi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar ingliz xalqi madaniyati, urf-odatlar, mentaliteti, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liq ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponimika, toponimika, transkripsiya, transliteratsiya, onomopoetika, zoonim, shekspirizm.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ УСТОЙЧИВЫЕ ЕДИНИЦЫ С ОНОМАСТИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ И ИХ УПОТРЕБЛЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Статья посвящена изучению употребления фразеологических устойчивых единиц с ономастическим компонентом, распространенных в современном английском языке. Основная часть фразеологизмов с ономастическим компонентом ориентирована на людей и оценивает физическую, психическую, моральную, интеллектуальную характеристику человека. Изучено, что фразеологические устойчивые единицы с ономастическим компонентом в английском языке неразрывно связаны с культурой, обычаями, менталитетом, условиями жизни, стремлениями и мировоззрением английского народа.

Ключевые слова: Ономастика, антропонимика, топонимика, транскрипция, transliteratsiya, ономопoeтика, зооним, шекспиризм.

PHRASEOLOGICAL STABLE UNITS WITH AN ONOMASTIC COMPONENT AND THEIR USE IN MODERN ENGLISH

Annotation

The article is devoted to the study of the use of phraseological stable units with an onomastic component, which are common in modern English. The main part of phraseological stable units with an onomastic component is focused on a person in terms of meaning, and they evaluate a physical, mental, moral, intellectual characteristic of a person. It has been studied that phraseological stable units with onomastic component in the English language are inextricably linked with the culture, customs, mentality, living conditions, aspirations, and world view of the English people.

Key words: Onomastics, anthroponymy, toponymy, transcription, transliteration onomopoetics, zoonym, Shakespeareism.

Kirish. Ingliz tili bir necha ming yillik tarixga ega. Shu yillar mobaynida insonlar tomonidan ma'noni chiroqli ifoda etadigan katta miqdordagi so'z iboralari yig'ila bordi. Keyinchalik bu so'z iboralari yaxlit bir ma'noni ifodalovchi frazeologizmlarga aylanib, hozirgi vaqtga qadar frazeologiya sohasida juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirildi.

Hozirgi zamon ingliz tilida odam va joy nomlari bilan bog'liq juda ko'p frazeologik birliklar mavjud bo'lib ular badiiy matnlarda va og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. Ularni onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar deb yuritiladi.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning leksikologiya, leksikografiya, semasiologiya, frazeologiya kabi bo'limlaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida onomastika ham kishi nomlarini o'rganuvchi antroponimika va joy nomlarini tadqiq qiluvchi toponimika fanlarini o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xo'sh, onomastika o'zi qanday soha? Onomastika (yun. onomastike – nomlash, nom qo'yish san'ati) – tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. [A. Madvaliyev "Onomastika" "Sharq" 2018, 3-7-bet.] Atoqli nomlarning

lisoniy xususiyatlariga qarab onomastika adabiy va dialektal, odatdagi (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, nutqda qo'llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni (poetik onomastika) tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy -tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so'z yasallishi, semantik, etimologik va boshqa jihatlarini o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilida qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi so'zlar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zgartirish masalalari bilan shug'ullanadi. Onomastika tarix, etnografiya, arxeologiya, genealogiya, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqadordir. Demak, onomastika bu atoqli otlarni

, ularning nomlanish tarixi, nomlanish sabablarini o'rganuvchi soha. Onomastikaning obyekt turiga ko'ra turlari ko'p. Bu degani aynan qanday obyektni nomlayotganiga ko'ra turlarga bo'linadi. Bu haqida yuqorida fikr yuritdik. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida ko'rib chiqqan asosiy 4ta turi haqida bahs yuritsak. Atiqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi: 3 1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar (lot. antropoz – shaxs, odam; onuma – nom): Ahmad, Karim va boshqalar. 2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar (lot. topos – qishloq, shahar, maydon, ko'cha, onuma - nom): Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi kabi. 3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar (lot. soom – hayvon, opuna – nom): to'rtko'z, bo'ribosar kabi. 4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar (daryo, ko'l, dengiz nomlari) gidronimlar (lot. gidro – daryo, suv, onuma – nom): Orol dengizi, Balxash ko'li, Qashqadaryo kabi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atiqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atiqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atiqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan ham shug'ullanadi.

Onomastika tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

Onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarning asosiy qismi ma'no jihatidan insonga qaratilgan bo'lib, ular kishining biror jismoniy, ruhiy, ahloqiy, intellektual xususiyatini, hatti-harakatini baholaydi. Ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar ingliz xalqi madaniyati, urf-odatlar, mentaliteti, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Ular obrazlilik, ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, badiiy, publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek ixcham, ma'no jihatdan salmoqdor, fikrni asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashga yordam beradi.

Kelib chiqishiga ko'ra onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

Sof ingliz tiliga xos onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar;

Boshqa tillardan kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar.

O'z navbatida, sof ingliz tiliga xos onomastik komponentli frazeologik

turg'un birliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi: bibliizmlar, Shekspirizmlar antik mifologiya bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar, ertak qahramonlari, tarixiy shaxslar nomlari, adabiy manbalardan

olingan asar personajlari nomlari, ingliz xalqining urf-odatlar, hamda ingliz realiyalari bilan bog'liq bo'lgan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o'tilganidek, ingliz tilidagi onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklarning salmoqli qismi antik davr tarixi, madaniyati va mifologiyasi bilan bog'liq. Masalan, appeal to Caesar – davlat hokimiyatiga, ya'ni oliy hokimiyatga murojaat qilmoq iborasining tarixi Rim imperatori Sezar nomi bilan bog'liq bo'lib u hukmronlik qilgan davrga borib taqaladi. Pandora's box – Pandoraning qutisi (so'zma-so'z), hamma kulfatning sababchisi; Penelope's Web – Penelopaning to'ri (so'zma-so'z), vaziyatdan yutish maqsadida biror narsani ataylab orqaga surish; Shuningdek, adabiy manbalardan olingan asar personajlari nomlari, ingliz xalqining urf-odatlar, hamda ingliz realiyalari bilan bog'liq onomastik komponentli turg'un birikmalarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: Brown, Jones, and Robinson – bu ibora ingliz millatiga mansub oddiy xalq vakillariga nisbatan ishlatiladi (xuddi ruslardagi Ivanov, Petrov, Sidorov kabi). Birinchi marta "Punch" hajviy jurnalida yozuvchi R.Doyl tomonidan qo'llanilgan. Brown Betty – olmal puding (Amerika jargonida o'zlashgan); Big Bertha – bahaybat Berta (so'zma-so'z), harbiylar jargonida katta kalibrli nemis pushkasi; Aunt Jane – Jeyn xola (so'zma-so'z), xudojo'y negr ayollariga qo'yilgan laqab; Brother Jonathan – tipik Amerikalik, yanki ma'nosini anglatadi; David and Jonathan – orasidan qil o'tmaydigan do'stlar (etimologik jihatdan biblizm hisoblanadi); a Jim Crow car – poyezdda qora tanlilar uchun ajratilgan maxsus vagon (Amerika jargoni); Davy Jones – dengizning yovuz ruhi (yozuvchi T.Smollet tomonidan yaratilgan).

Shu o'rinda, aytib o'tish joizki, kishi nomlari bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar badiiy matnda yoki og'zaki nutqda o'zining asl ma'nosida emas ko'chma ma'noda ekspressivlik, emotsionallik, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Joy nomlari bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik birliklar haqida to'xtaladigan bo'lsak, ular ham hozirgi zamon ingliz tilida xuddi kishi nomlari bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik birliklar singari keng qo'llaniladi. Bu turdagi frazeologik birliklar ham etimologik jihatdan bibliizmlar, antik mifologiya bilan bog'liq frazeologik birliklar, tarixiy joy nomlari bilan bog'liq hamda adabiy manbalardan olingan onomastik komponentli frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi.

Masalan, bibliizmlar va antik mifologiya bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik birliklarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: fiddle while Rome burns – xalq boshiga kulfat tushgan mahalda bazmu jamshid bilan band bo'lish; go over to Rome – o'z e'tiqodidan voz kechib katolik dinini qabul qilmoq; go to Canossa – kimdandir uzr so'rab ko'pchilikning oldida taxqirlanmoq; cross the Rubicon – Rubikonni kesib o'tmoq (so'zma-so'z), ya'ni aql bovar qilmaydigan ishni bajarishga jazm qilmoq; raise Cain – shovqin ko'tarmoq, to's-to'polon qilmoq; garden of Eden – Bog'i Eram; a good Samaritan – oqko'ngil Samaritanlik.

Tarixiy joy nomlari bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar: all's quite along the Potomac – Potomakda hamma yoq tinch (1861-1865 yillarda AQSHdagi fuqarolar urushi paytida ilk bor qo'llanilgan va tilda o'rnamshib qolgan); fight like Kilkenny cats – qaqshatqich jang qilmoq (XVII asrda Kilkenny degan joyda bo'lgan qonli urushlar tafsilotlari oqibatida paydo bo'lgan).

Adabiy manbalardan ingliz tiliga kirib kelgan onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar: a London particular – Londonga xos bo'lgan qalin tuman (mashhur yozuvchi Ch.Dikens hazil tariqasida o'z asarida qo'llagan); grin like a Cheshire cat – og'zi qulog'ida bo'lmoq

(yozuvchi L.Kerrolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asarida uchraydi); from China to Peru – Xitoydan Perugacha (so'zma-so'z) dunyoning bir uchidan ikkinchi uchigacha (mashhur leksikograf S.Jonson tomonidan yaratilgan);

Xulosa va takliflar. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning ko'p qismi aynan inglizlar tomonidan yaratilgan oborotlar hisoblanib, ularning mualliflari aniq ma'lum emas. Bunday frazeologik birliklar ingliz xalqining urf-odatlar, an'analar, realiyalari va tarixiy faktlari bilan bog'liq. Jumladan, be off Bedfordshire – Bedfordshirga jo'nab ketmoq (so'zma-so'z), yotib uxlamog; a Norfolk dumping – Norfolk chuchvarasi (so'zma-so'z) – baqaloq odamga nisbatan (odatda Norfolk grafligi fuqarosi) ishlatiladi; Father Thames – otaxon

Temza; Temza daryosining laqabi; Merry England – qo'vnoq, qadrdon Angliya.

Shuningdek, AQSHdagi joy nomlari bilan bog'liq onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar, o'sha yerda yashovchi aholi jargonidan ingliz tiliga o'zlashgan. Jumladan, a Philadelphia lawyer – ustomon, ayyor advokat; New York's finest – Nyu Yorkning azamat yigitlari, Nyu York politsiyachilarining laqabi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, onomastik komponentli frazeologik turg'un birliklar matnning jonli, jozibador va obrazli, hamda sermazmun bo'lishiga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi bunday frazeologik birliklar ingliz xalqining milliy o'ziga xosligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Madvaliyev A. Onomastika "Sharq"2018.
2. Kilichev B., Onomastika. Buxoro: 2023.
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1961.
4. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., 1972.
5. Свиридова Л.Ф. Обогащение английской фразеологии шекспиризмами. М., 1968.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – JL: Изд-во ЛГУ, 1963.
7. Андреева Л.И. Семантика литературного антропонима // Русская ономастика. — Рязань: Изд-во Рязан. пед. ин-та, 1977.
8. Arnold I.V. - The English Word – М., 1986
9. Partridge E. Dictionary of Clichers, Ldn., 1960.
10. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: филол. фанл.номзоди...дисс. –Т., 1965.
11. Бегматов Э. Антрополексемалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. -1965, 2-сон.